

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**ADASHALIYEV BAXTIYORJON VALISHER O'G'LI**

**XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR TO'LOVGA  
LAYOQATLILIGINI BANKLAR FAOLIYATIGA TA'SIRINI BAHOLASH  
YO'LLARI**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024-yil**

**Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси  
автореферати мундарижаси**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on economics sciences**

**Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o‘g‘li**

Хо‘jalik yurituvchi subyektlar to‘lovga layoqatliligini banklar faoliyatiga ta’sirini baholash yo‘llari.....

**Адашалиев Бахтиёржон Валишер ўғли**

Способы оценки влияния платежеспособности хозяйствующих субъектов на деятельность банков.....

**Adashaliyev Bakhtiorghon Valisher ugli**

Methods for assessing the impact of the solvency of business entities on the activities of banks.....

**E’lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**ADASHALIYEV BAXTIYORJON VALISHER O'G'LI**

**XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR TO'LOVGA  
LAYOQATLILIGINI BANKLAR FAOLIYATIGA TA'SIRINI BAHOLASH  
YO'LLARI**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024-yil**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida V2022.2.PhD/Iqt 2229 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Abdusalomova Nodira Bahodirovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar**

**Etakchi tashkilot:**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tdi. Manzil:100066, Toshkent shahar, I.Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (998971) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil:100066, Toshkent shahar, I.Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (998971) 239-28-72; 239-01-49. faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2024-yil “\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**S.U. Mexmonov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
i.f.d., professor

**U.V. Gafurov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, i.f.d., professor

**S.K. Xudoyqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d.,  
professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda xalqaro iqtisodiy va geosiyosiy aloqalarning keskin yomonlashishi hamda turli ziddiyatlar keskinlashuvi, xususan, 2020-yilda boshlangan pandemiya va buning davomi sifatida 2022-yildan inflyatsiya darajasi oshib ketishi sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatida ham salbiy tendensiyalar kuchaymoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, “ayrim sohalar, jumladan, farmatsevtikaning ayrim tarmoqlari, tibbiyot sohasi, kompyuter texnologiyalari sohasiga ijobiy ta’sir etgan bo‘lsa, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasiga o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatib, oqibatda korxonalarining moliyaviy holati yomonlashuvi, rentabelligi pasayishiga olib kelgan”<sup>1</sup>. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘lovga layoqatligining salbiy tomonga o‘zgarishi, o‘z navbatida, tijorat banklarining kredit portfeliga va aktivlar sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, “jahon iqtisodiyotida inflyatsiya darajasi oshishi xo‘jalik yurituvchi subyektlar rentabelligini 12,2 foizga kamaytirgan hamda buning natijasida banklar kredit portfeli sifatini 7,1 foizga yomonlashtirgan”<sup>2</sup>. Bunday holatlar xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘lovga layoqatligining banklar faoliyatiga ta’sirini baholash yo‘llarini tadqiq etish dolzarbligini namoyon etadi.

Jahonda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning to‘lovga layoqatligini aniqlash, xorijiy investorlar va kreditorlarga kerakli axborotni yetkazish, samarali boshqarish uchun subyekt balansining likvidligini aniqlash, to‘lovga layoqatlikning asosiy ko‘rsatkichlarini hisoblash va ularni oshirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning to‘lov qobiliyatini aniqlash uslubiyotini takomillashtirish, kredit tarixiga ega bo‘lmagan, kredit olmagan korxonalarining kreditga layoqatligini baholash, aktivlarning pulga aylanishini tez va sekin aylanish jihatidan tadqiq etish, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning to‘lov qobiliyatiga ta’sir etuvchi omillarning prognoz ko‘rsatkichlarini baholash, to‘lovga layoqatlikning tijorat banklari faoliyatiga ta’sirini baholash uslubini takomillashtirish masalalari bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi.

O‘zbekistonda tijorat banklari tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning to‘lovga layoqatligini aniqlash va shu asosda ularni toifalarga ajratib kredit ajratish bo‘yicha qarorlar qabul qilish, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning qarz majburiyatlarini qoplay olish qobiliyatini aniqlash, kredit ajratilgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holati vaqt o‘tishi bilan salbiy tomonga o‘zgarishi natijasida banklarda muammoli kreditlar salmog‘i oshishiga olib kelib, uning oldini olish bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo xo‘jalik yurituvchi subyektlarning to‘lovga layoqatligi aniqlashning amaldagi usullaridagi kamchiliklar mazkur muammoni to‘liq hal etib bera olmaydi. Xo‘jalik yurituvchi subyekt to‘lov qobiliyatini aniqlash uslubini, bank mijozi hisoblangan va barqaror rivojlanish ko‘rsatkichiga ega xo‘jalik yurituvchi subyektning kredit qobiliyatiga baho berish tartibini takomillashtirish, xo‘jalik yurituvchi subyektning joriy aktivlarini pulga aylanish nuqtai nazaridan guruhlash, pul mablag‘lari va qisqa muddatli investitsiyalar doimiy harakatdagi aktivlar sifatida

<sup>1</sup> <https://www.hse.ru/edu/vkr/470728525> sayti ma’lumotlari

<sup>2</sup> <https://www.imf.org/en/Blogs/Articles/2023/10/04/how-managing-inflation-expectations-can-help-economies-achieve-a-softer-landing>

e'tirof etilishi va joriy investitsiyalarni hisobga olish tartibini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2020-yil 27-oktyabrdagi PF-6096-son "Davlat ishtirokidagi korxonalarini isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-dekabrda 775-son "Davlat ishtirokidagi korxonalar ijro etuvchi organi faoliyati samaradorligini baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 14-dekabrda 1013-son "Davlat ishtirokidagi korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2015-yil 28-iyulda 207-son "Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida"gi qarorlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga mos ravishda bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Xo'jalik yurituvchi subyektlarda to'lov qobiliyatini aniqlashning nazariy va amaliy jihatlari o'rganish yuzasidan ko'plab xorijlik olimlar, jumladan, S.O.Udoka, R.Anyin, N.R.Emmanuel, A.Dahiyat, H.YUsof, L.A.Soenen, N.S.Abryutina va boshqalar tadqiqot olib borganlar<sup>3</sup>. MDH olimlari M.Q.Pardayev, E.Akramov, M.YU.Raximov, SH.Z.Abdullayeva, B.J.Hakimov, N.Mavlanov, G.Turdiyeva va boshqalar muhim hissa qo'shganlar<sup>4</sup>.

Ammo yuqoridagi xorijiy tadqiqotchilar hamda mamlakatimiz olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy ishlanmalarda xo'jalik yurituvchi subyektlarda to'lov

---

<sup>3</sup> Udoka, C.O., & Anyingang, R. (2012). An analytical and theoretical investigation of the determinants of deposit money bank's investment in treasury bills in Nigeria. *European Journal of Business and Management*, 4(21), 42–48. <https://www.iiste.org/Journals/index.php/EJBM/article/view/3615>. Emmanuel, N.R. (1997). Commercial banking in an era of deregulation (3rd ed.). Westport, CT: Greenwood Publishing Group. Dahiyat, A. (2016). Does Liquidity and Solvency Affect Banks Profitability? Evidence from Listed Banks in Jordan. *International Journal of Academic Research in Accounting, Finance and Management Sciences*, 6(1), 35-40. Retrieved from <https://ideas.repec.org/a/hur/ijaraf/v6y2016i1.p35-40>. Yusoff, H.B.M. (2017). The Effect of Liquidity and Solvency on Profitability: The Case of Public-Listed Consumer Product Companies in Malaysia (Master Thesis). University Tun Hussein Onn Malaysia. SOENEN L. A. (1993). Cash conversion cycle and corporate profitability, *Journal of Cash Management*, Vol 13 No 4 pp. 53-58. Абрютинa Н.С. Анализ финансово-экономической деятельности предприятия. М.: «Дело и сервис», 2000г. – 256 с.

<sup>4</sup> Pardayev M. Moliyaviy tahlil SamISI-2007. [www.ziyonet/uz](http://www.ziyonet/uz). Akramov E. Korxonalar moliyaviy holatini tahlili. – T.: TMI. Elektron manba 2010 y. Raximov M.YU, Kalandarova N.H. Moлиявий таҳлил. – T.: Iqtisod-Moliya, 2019. Mavlanov N. Xўжалик юритувчи субъектларнинг кредитга лаёқатлилиги таҳлили ва баҳолашни такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2019. 15-б. Турдиева Г. Xўжалик юритувчи субъектлар кредит қобилияти таҳлилининг назарий ва ташкилий-услубий жиҳатларини такомиллаштириш. Автореферат. – Тошкент, 2019.

qobiliyatini aniqlash masalasi alohida ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida tanlab olinmagan. Bu esa bugungi kun talablariga javob beruvchi ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo etib, muammoning nazariy va amaliy jihatdan hal qilinishi mazkur ishning dolzarbligini belgilaydi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FM-6-son "O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, audit va statistika sohalari taraqqiyotini konseptual yo'nalishi" mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lovga layoqatliligini banklar faoliyatiga ta'sirini baholash bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatini aniqlashda ularning faoliyati va moliyaviy holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash hamda to'lov muddati bo'yicha o'rganishlar o'tkazish;

to'lov qobiliyati va kredit qobiliyati tushunchalarini ilmiy o'rganish asosida mualliflik ta'rifini shakllantirish;

xo'jalik yurituvchi subyektlarning to'lov qobiliyatini aniqlashda to'lov qobiliyati aniqlanayotgan davrdan boshqa davrni hisobga olish bo'yicha o'rganishlar o'tkazish va xulosalar shakllantirish;

kredit tarixiga ega bo'lmagan, kredit olmagan korxonalar uchun kreditga layoqatlilikni baholashda hisobga olinishi lozim bo'lgan ko'rsatkichlarni aniqlash;

aktivlarning pulga tez va sekin aylanishi bo'yicha o'rganishlar o'tkazish hamda tegishli xulosalar shakllantirish;

xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatiga ta'sir etuvchi omillarning prognoz ko'rsatkichlarini aniqlash;

xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lovga layoqatliligining tijorat banklari faoliyatiga ta'siriga baho berish;

xo'jalik yurituvchi subyektlarda to'lov qobiliyatini oshirish yo'llari bo'yicha tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida "O'zmaxsusmontajqurilish" AK va uning tarkibiga kiruvchi korxonalar hamda ATB Mikrokreditbank olingan.

**Tadqiqotning predmetini** xo'jalik yurituvchi subyektlarda to'lov qobiliyatini aniqlash jarayonidagi iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida tizimli yondashuv, guruhlash, taqqoslama tahlil, induksiya, deduksiya, qiyosiy taqqoslash, nazariy va amaliy o'rganish, statistik tahlil, omilli tahlil, iqtisodiy-matematik hamda buxgalteriya hisobi usullaridan keng foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

xo'jalik yurituvchi subyekt to'lov qobiliyatini aniqlashda uzoq muddatli majburiyatlarning joriy majburiyatlarga o'tuvchi qismi, uzoq mudatli kreditlarning foiz to'lovi, joriy debitorlik qarzigina o'tkaziluvchi uzoq muddatli debitorlik qarzlari,

ya'ni olinadigan foizlarni qo'shib hisoblashda 6 oylik muddatni qamrab olish lozimligi asoslangan;

xo'jalik yurituvchi subyektning kredit qobiliyatiga baho berishda bank mijozi hisoblangan, barqaror rivojlanish ko'rsatkichiga ega subyektga bank kreditlaridan foydalanmagan bo'lsa ham, kredit tarixi bo'yicha belgilangan 4 ballni, besh yildan ko'proq vaqt ishonchli va barqaror faoliyat yuritgan xo'jalik yurituvchi subyektga kredit tarixi bo'yicha beriladigan ballni shakllantirishda 5 ballni, besh yildan kam barqaror faoliyat yuritgan bo'lsa, 3 ballni taqdim etish taklifi asoslangan;

xo'jalik yurituvchi subyekt joriy aktivlarini pulga aylanish nuqtai nazaridan guruhlashda debitorlik qarzlarning (A2) muddatiga va tovar-moddiy zaxiralarning (A3) pulga aylanish tezligiga ko'ra debitorlik qarzlarning muddati va tovar-moddiy zaxiralarning sotilish davrini alohida hisobga olish maqsadga muvofiqligi asoslangan;

pul mablag'lari va qisqa muddatli investitsiyalarning doimiy harakatdagi aktivlar sifatida e'tirof etilishi hamda amaliyotda qisqa muddatli investitsiyalar va qimmatli qog'ozlarning debitorlik qarzlarga nisbatan qiyin va uzoq muddatda pulga aylanishi sababli uch oydan ko'proq muddatga kiritilgan joriy investitsiyalarni A2 tarkibida hisobga olish taklif etilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

to'lov qobiliyati va kredit qobiliyati tushunchalarini ilmiy o'rganish asosida mualliflik ta'rifi shakllantirilgan;

iqtisodiyotdagi inflyatsiya darajasining 1 foizga oshishi ikki oydan keyin xo'jalik yurituvchi subyektlarning to'lovga layoqatliligini -0,42 foizga pasaytirishi aniqlangan;

muomaladagi pul massasining 1 foizga oshishi ikki oydan keyin xo'jalik yurituvchi subyektlarning to'lovga layoqatliligini 1,04 foizga oshirishi aniqlangan;

xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lovga layoqatliligining 1 foizga oshishi keyingi oydan bank foydasini 0,17 foizga hamda bank aktivlarini esa 0,09 foizga oshirishi ekonometrik modellar asosida aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlar bazasining rasmiy manbalar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi va xo'jalik yurituvchi subyektlar rasmiy manbalaridan olinganligi, tadqiqotlar me'yoriy-huquqiy hujjatlar va tahliliy ma'lumotlarga asoslanganligi, shuningdek, xulosa va takliflarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalar vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot natijalaridan xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatini aniqlashga oid ilmiy tadqiqotlarning uslubi asosini kengaytirish hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot ishida asoslangan xulosalar, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan xo'jalik yurituvchi subyektlarda to'lov qobiliyatini aniqlash, shuningdek, buxgalteriya hisobini yuritishga doir ilmiy tadqiqot ishlarini yanada chuqurlashtirish va korxonalarda tahlilni tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.



**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda to‘lov qobiliyatini aniqlashni takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

xo‘jalik yurituvchi subyekt to‘lov qobiliyatini aniqlashda uzoq muddatli majburiyatlarning joriy majburiyatlarga o‘tadigan qismi, uzoq muddatli kreditlarning foiz to‘lovi, joriy debitorlik qarzigaga o‘tkaziladigan uzoq muddatli debitorlik qarzlari, ya’ni olinadigan foizlarni qo‘shib hisoblashda 6 oylik muddatni qamrab olish taklifi (“Mikrokreditbank” ATBning 2022-yil 2-noyabrdagi 03-40/17050-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida to‘lov qobiliyatini aniqlashda ijobiy natijaga erishilgan;

xo‘jalik yurituvchi subyektning kredit qobiliyatiga baho berishda bank mijozi hisoblangan, barqaror rivojlanish ko‘rsatkichiga ega subyektga bank kreditlaridan foydalanmagan bo‘lsa ham, kredit tarixi bo‘yicha belgilangan 4 ballni, besh yildan ko‘proq vaqt ishonchli va barqaror faoliyat yuritgan xo‘jalik yurituvchi subyektga kredit tarixi bo‘yicha beriladigan ballni shakllantirishda 5 ballni, besh yildan kam barqaror faoliyat yuritgan bo‘lsa, 3 ballni taqdim etish taklifi “Mikrokreditbank” ATBning “Tadbirkorlik subyektlarini kreditlashda anerrayting xizmatidan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi nizomiga asosan amaliyotga joriy etilgan (“Mikrokreditbank” ATBning 2022-yil 2-noyabrdagi 03-40/17050-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida xo‘jalik yurituvchi subyekt kredit qobiliyatiga baho berishda aniqlik va shaffoflikka erishilgan;

xo‘jalik yurituvchi subyekt joriy aktivlarini pulga aylanish nuqtai nazaridan guruhlashda debitorlik qarzlarning (A2) muddatiga va tovar-moddiy zaxiralarning (A3) pulga aylanish tezligiga ko‘ra debitorlik qarzlarning muddati va tovar-moddiy zaxiralarning sotilish davrini alohida hisobga olish taklifi “Mikrokreditbank” ATBning “Tadbirkorlik subyektlarini kreditlashda anerrayting xizmatidan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi nizomiga asosan amaliyotga joriy etilgan (“Mikrokreditbank” ATBning 2022-yil 2-noyabrdagi 03-40/17050-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida xo‘jalik yurituvchi subyekt debitorlik qarzlarning muddati va tovar-moddiy zaxiralarning sotilish davrini pulga aylanishi nuqtai nazaridan axborotning ishonchliligi va shaffofligiga erishilgan;

pul mablag‘lari va qisqa muddatli investitsiyalar doimiy harakatdagi aktivlar sifatida e’tirof etilishi hamda amaliyotda qisqa muddatli investitsiyalar va qimmatli qog‘ozlarning debitorlik qarzloriga nisbatan qiyin va uzoq muddatda pulga aylanishi sababli uch oydan ko‘proq muddatga kiritilgan joriy investitsiyalarni A2 tarkibida hisobga olish taklifi “Mikrokreditbank” ATBning “Tadbirkorlik subyektlarini kreditlashda anerrayting xizmatidan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi nizomiga asosan amaliyotga joriy etilgan (“Mikrokreditbank” ATBning 2022-yil 2-noyabrdagi 03-40/17050-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida kreditlash jarayonining yanada soddalashtirilishi va skoring tizimida real baho berish imkoniyatlari kengaytirilishiga erishildi hamda joriy yil davomida tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar hajmi o‘tgan yilning ushbu davriga nisbatan 16 foizga oshirildi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan va ijobiy baholangan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, shu jumladan, milliy OAK e'tirof etgan jurnallarda 2 ta, xalqaro nufuzli jurnallarda 1 ta ilmiy maqola, shuningdek, ilmiy-amaliy konferensiyalarda 11 ta ma'ruza va tezislar nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 142 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zururati asoslangan, maqsadi va vazifalari belgilangan, obykti hamda predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijasida olingan xulosalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar talab darajasida keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy holati va to'lovga layoqatliligini aniqlashning nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlanib, O'zbekiston Respublikasida xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy holatini baholashning nazariy-huquqiy asoslari, xo'jalik yurituvchi subyektlarda to'lov qobiliyatini aniqlashning nazariy masalalari va tijorat banklari tomonidan kreditga layoqatlilikni aniqlashning ayrim jihatlari hamda buxgalteriya hisobining uslubiy va huquqiy-me'yoriy asoslari yoritilgan.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini tahlil qilishdan maqsad ularning holatini o'rgangan holda subyektlar tomonidan ma'lum ko'rinishdagi qarorlar qabul qilishdan iborat. Jumladan, xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy holati tahliliga ko'ra investorlar investitsiya kiritish bo'yicha o'z qarorlarini qabul qiladilar. Tijorat banklari subyektga kredit ajratish yoki ajratmaslik yoxud ajratilayotgan kredit miqdori bo'yicha o'z munosabatlarini bildirib, tegishli qarorlar qabul qiladilar. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zi esa mazkur tahlilni amalga oshirish natijasida o'z faoliyatlari baholab oladilar hamda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qiladilar.

Ayni paytda dunyo hamjamiyatidagi tahlikali vaziyat, dastlab pandemiya tufayli turli iqtisodiy pasayishlar yuz berishi, bu pasayish o'zini tiklab olmay turib, uning ketidan dunyo hamjamiyatini tobora qamrab borayotgan ayrim mamalakatlar o'rtasidagi ziddiyatli, hatto urush oqibatlarini, turli sansiyalar mamlakatlar va ulardagi korxonalarining to'lov bilan bog'liq muammolarini keltirib chiqarmoqda.

Iqtisodiyotning hozirgi holati ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatining qisqarishi, sanoat kapital qo'yilmalari kamayishi, pul muomalasining parchalanishi bilan tavsiflanadi. Bunday tendensiyalar davom etayotgan makroiqtisodiy siyosatning natijasi bo'lib, bu asosiy reproduktiv zanjirlar va iqtisodiy aloqalar uzilishiga olib keldi. Iqtisodiyotning tarkibiy xususiyatlariga e'tibor bermaslik, bozorning o'zini o'zi tashkil etish mexanizmlarining avtomatik ta'siriga umid qilish uning parchalanishi va

tartibsizlik kuchayishini keltirib chiqardi. Bozor muvozanati holati uchun an'anaviy bo'lgan makroiqtisodiy barqarorlashtirish usullarini pul massasini cheklash orqali qo'llashga urinishlar adekvat natija bermadi. Iqtisodiyotga xos nomutanosiblik bilan bu uning har biri o'ziga xos muvozanat holatiga intilayotgan avtonom faoliyat yurituvchi tarmoqlarning muqarrar ravishda parchalanishiga olib keldi.

Tadqiqot mavzusi doirasida xorijiy adabiyotlarni tahili qilgan holda aktivlar pentabelligi, to'lov qobiliyati, likvidlilik, to'lov layoqati deb turlicha nomlangan tushunchalar bilan ifodalangan sharhlar, izohlar ko'rib chiqildi.

Muallifning fikricha, to'lov qobiliyati va kredit qobiliyati tushunchasi o'z-o'zidan mana shu joyning o'zida ajratilishini ko'rish mumkin. Ya'ni to'lov qobiliyati keng tushuncha bo'lib, aynan kreditlarni to'lash qobiliyatini uning bir qismi sifatida o'rganish mumkin. Shu bois, to'lov qobiliyati xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan qarz majburiyatlarini turli shartlar asosida to'lash imkoniyatini ifodalovchi ko'rsatkich hisoblanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning to'lov qobiliyatini real va to'g'ri aniqlash aynan buxgalteriya balansi, umuman, moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida aniqlanganda muallif tomonidan aniqlanayotgan davrga alohida e'tibor qaratish lozim.

### 1-jadval

#### Moliyaviy holatni ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni hisoblash tartibi<sup>5</sup>

Ko'rsatkichlar	Hisoblash formulasi
Aktiv pentabelligi	$K_{ap} = F_{stq}/A_{o'pt}$ , bunda: $F_{stq}$ – daromad (foyda) solig'i to'langunga qadar foyda (zarar) miqdori (2-shaklning 240-satri 5-yoki 6-ustuni); $A_{o'pt}$ – formula bo'yicha hisoblangan aktivlarning o'rtacha arifmetik qiymati.
To'lov qobiliyati ko'effitsiyenti	$K_{tq} = A2 / (M2 - U_m)$ , bunda: $A2$ – 1-shaklning II qismi, 390-satri; $M2$ – Balans passivining II qismi, 770-satri; $U_m$ – uzoq muddatli majburiyatlar (2-SHning 490-satri).
Moliyaviy bapqaplik ko'effitsiyenti	$MB = (O'M + UMM) / VB$ , bunda: $O'M$ – o'z kapitali; $UMM$ – uzoq muddatli majburiyatlar; $VB$ – valyuta balansi.
Aksiyadop investitsiyasining pentabelligi	$(\text{davr oxirida aksiyaning narxi} - \text{davr boshida aksiyaning narxi} + \text{davr davomida to'langan dividendlar}) / (\text{davr boshida aksiyaning narxi})$

Bunda agar o'tgan yilgi hisobot asosida to'lov qobiliyati aniqlanayotgan bo'lsa, to'lov qobiliyati aniqlanayotgan oy yoki chorakni ham qo'shgan holda, joriy aktiv va joriy majburiyatlarni e'tiborga olgandan tashqari quyidagi ikkita ko'rsatkichni ham alohida hisoblash maqsadga muvofiq:

1. Uzoq muddatli debitorlik qarzlarning joriy qarzga o'tkaziladigan qismi.
2. Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy majburiyatga o'tkaziladigan qismi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt to'lov qobiliyatini aniqlashda eng muhim masalalardan biri korxonaning debitorlik va kreditorlik qarzlari hamda pul mablag'lari, zaxiralarining e'tiborga olinishidir. Shu bilan birga har bir aktivdan

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-dekabrda "Davlat ishtirokidagi korxonalar ijro etuvchi organi faoliyati samaradorligini baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 775-son qarori asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

xo‘jalik yurituvchi subyektda foydalanish va saqlab turish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt to‘lov qobiliyatini to‘laqonli aniqlashda quyidagilarni ham e‘tiborga olish maqsadga muvofiq:

- ombordagi xomashyo miqdori va uning xo‘jalik yurituvchi subyektda o‘rtacha qancha vaqtda mahsulotga aylanishi;
- ishlab chiqarilgan mahsulotning qancha vaqtda debitorlik qarzigaga aylanishi;
- debitorlik qarzlarning qancha vaqtga pul mablag‘iga aylanishi;
- pul mablag‘larining takror ishlab chiqarish jarayonida yana xomashyo xaridi va ta‘minot jarayoniga sarflanishi.

Umuman, muallifning fikricha, to‘lov qobiliyati koeffitsiyenti kompaniyaning pul mablag‘lariga aylanuvchi qiymatliklarining pul aylanish darajasi va uning uzoq muddatli hamda joriy majburiyatlarini to‘lash uchun yetarli ekanligi yoki yetarli emasligini aniqlaydi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning to‘lov qobiliyati va uning bank faoliyatiga ta‘sirining tahlili**” deb nomlanib, bu bobda tijorat banklarining kredit portfeli va ularda tarkibiy risk omillari tahlili, xo‘jalik yurituvchi subyektlarda to‘lov qobiliyatini aniqlashning amaliy asoslari, aktiv va majburiyatlarining to‘lov qobiliyatiga ta‘sirining tahlillari keltirilgan.

Tijorat banklarida asosiy daromad manbai kredit operatsiyalari bo‘lib, banklar aktivlarining 70 foizi atrofida bu sohaga yo‘naltiriladi. Tijorat banklari uchun kredit portfeli sifatini ta‘minlash muhim masalalardan biridir. Aynan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning to‘lovga layoqatliligi tijorat banklarining moliyaviy barqarorligiga ta‘sir ko‘rsatadi. Agar xo‘jalik yurituvchi subyektlarning to‘lovga layoqatliligi yuqori bo‘lsa, tijorat banklarining daromadlari oshadi va ularning rentabelligi yuqori bo‘ladi. Aksincha, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning to‘lovga layoqatliligi tushib ketsa, tijorat banklarida kutilayotgan daromadlar pasayib ketishi va buning natijasida ularning rentabelligida muammolar yuzaga kelishi mumkin.

Tijorat banklarida kredit portfelidagi asosiy riskni ko‘rsatuvchi omil sifatida transformatsiya riskini keltirish mumkin. Bunda bank kreditlarining barqaror resurs manbalari bilan ta‘minlanganlik darajasini o‘rganish lozim. Tijorat banklari uchun barqaror resurs manbalari sifatida asosan depozitlar olinadi.

## 2-jadval

### Bank tizimida kredit portfelidagi risklilik holati<sup>6</sup>

(1 yanvar’ holatiga)

Ko‘rsatkichlar	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
<b>Butun bank tizimida</b>					
Kreditlarning aktivlarga nisbati, %	77,6	75,7	73,4	70,1	72,3
Depozitlarning kreditlarga nisbati, %	43,0	41,4	47,9	55,6	51,3
<b>Kapitalida davlat ulushi mavjud banklarda</b>					
Kreditlarning aktivlarga nisbati, %	81,1	78,8	77,3	74,7	75,4

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Depozitlarning kreditlarga nisbati, %	35,2	33,1	37,2	40,8	37,3
<b>Kapitalida davlat ulushi mavjud bo‘lmagan banklarda</b>					
Kreditlarning aktivlarga nisbati, %	58,6	58,9	56,1	59,1	65,6
Depozitlarning kreditlarga nisbati, %	101,3	100,2	112,2	99,6	85,0

Davlat ulushi mavjud bo‘lmagan banklar kapitalida davlat ulushi mavjud banklarga nisbatan kredit portfelidagi transformatsiya hamda aktivlarni kreditlarga yo‘naltirish darajasi singari risklardan ancha himoyalangan.

Yuqoridagi tahlillarga yanada aniqlik kiritish uchun mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan ayrim banklar faoliyatini alohida o‘rganib chiqish maqsadga muvofiq. Banklar tanlab olinganda, birinchi navbatda, ularning mulkchilik shakliga e‘tibor qaratilsa, ikkinchi tomondan, ularning hajmi o‘zaro yaqinligiga e‘tibor qaratildi. Shundan kelib chiqqan holda muallif kapitalida davlat ulushi mavjud bo‘lgan banklardan ATB Mikro kreditbankni tanlagan bo‘lsa, xususiy sektordagi banklar sifatida ATIB Ipotekabank va XAB Trastbankni tanlagan.

### 3-jadval


#### Tanlangan banklarning kredit portfelidagi risklilik holati<sup>7</sup>

(1 yanvar’ holatiga)

Ko‘rsatkichlar	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
<b>ATB Mikro kreditbankda</b>					
Kreditlarning aktivlarga nisbati, %	81,0	83,0	80,2	79,4	75,7
Depozitlarning kreditlarga nisbati, %	29,2	27,9	29,2	40,6	44,1
<b>ATIB Ipotekabankda</b>					
Kreditlarning aktivlarga nisbati, %	83,9	75,0	72,6	73,9	78,2
Depozitlarning kreditlarga nisbati, %	39,3	39,1	54,5	50,3	47,7
<b>XAB Trastbankda</b>					
Kreditlarning aktivlarga nisbati, %	52,4	47,4	39,6	42,5	52,3
Depozitlarning kreditlarga nisbati, %	152,7	163,7	198,5	180,0	136,3


Bank tizimi kredit portfelining sohalar va tarmoqlar bo‘yicha diversifikatsiyasiga e‘tibor qaratilsa, unda asosiy ulushni sanoat sohasi egallaydi. Statistika ma‘lumotlarga ko‘ra, 2018-yilda bank tizimida kreditlarning 40 foizi sanoat sohasiga yo‘naltirilgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 30 foizgacha pasaygan.

<sup>7</sup> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



**1-rasm. Bank tizimi kredit portfelining sohalar bo'yicha taqsimlanishi<sup>8</sup>**

So'nggi yillarda pandemiya holati va uning davomi sifatida xalqaro siyosatdagi ziddiyatlar xo'jalik yurituvchi subyektlarning to'lovga layoqatligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bunda tijorat banklarining ularni kreditlashdan chekinayotganligini kuzatish mumkin. Aksincha, oxirgi yillarda jismoniy shaxslarning daromadi oshishi ularga ajratilayotgan kreditlar ulushini oshirishga sabab bo'ldi.



**2-rasm. ATB Mikrokreditbank kredit portfelining sohalar bo'yicha taqsimlanishi<sup>9</sup>**


Tadqiqot obyekti bo'lgan ATB Mikrokreditbank kredit portfeli tahlil qilinsa, unda 2019-yilda bank kredit portfelida salmog'i jihatidan katta ulushga ega soha sanoat sohasi bo'lgan. Keyingi o'rinlarni qishloq xo'jaligi, savdo va umumiy ovqatlanish, transport va kommunikatsiya hamda xizmatlar sohalariga egallagan.

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning to‘lovga layoqatlilik darajasi o‘zgarishi bevosita tijorat banklarining rentabellik darajasiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Tijorat bankida muammoli kreditlar oshishi bilan uning rentabellik darajasi pasayishi kuzatilmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2019-yilda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning to‘lovga layoqatliligi pasayishi bilan kuzatilgan bankning muammoli kreditlari salmog‘i kredit portfelining 2,6 foizini tashkil qilgan bo‘lsa, 2021-yilda bu ko‘rsatkich 5,9 foizga hamda 2022-yilda bu ko‘rsatkich 4,8 foizga yetgan. Bu albatta bankning rentabellik ko‘rsatkichlarini pasaytirmoqda. Jumladan, 2019-yilda bankning aktivlarga ko‘ra rentabellik darajasi 2,1 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda esa bu ko‘rsatkich 0,4 foizgacha tushib ketgan. Shuningdek, bankning kapitalga nisbatan rentabellik ko‘rsatkich 2019-yilda 6,8 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda esa bu ko‘rsatkich 0,6 foizgacha tushib ketgan.



### 3-rasm. ATB Mikrocreditbankda muammoli kreditlar bilan rentabellik o‘rtasidagi bog‘liqlik<sup>10</sup>

Ta’kidlash lozimki, ATB Mikrocreditbankning aktivlar va kapitalga ko‘ra rentabellik ko‘rsatkichlari 2022-yilga kelib, umumiy bank tizimidagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan ham past bo‘lgan.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda to‘lov qobiliyatining yaxshi yoki yomon bo‘lishi mazkur subyektning aktivlari va majburiyatlari holati va harakatiga bevosita bog‘liq. Shu bois, to‘lov qobiliyati tushunchasi va uning atrofida munosabatlarga xo‘jalik yurituvchi subyektlar aktiv va majburiyatlarini o‘rganmay, ularni tahlil qilmay, baho berib bo‘lmaydi.

Umuman, aktivlar korxonalar mablag‘lari hisoblanib, ularning ko‘payishi xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun ijobiy o‘rganilib kamayishi esa, aksincha tushuniladi. Bir vaqtning o‘zida hatto xo‘jalik yurituvchi subyektlar daromadlari tushunchasini izohlaganda ham aynan aktivlarning ko‘payishi ekanligi to‘g‘risida ma’lumotlar keltiriladi. Muallifning o‘rganishlariga ko‘ra, aktivlar to‘g‘risida axborotlar ham buxgalteriya balans ma’lumotlaridan olinadi.

<sup>10</sup> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

**Buxgalteriya balansining likvidlik bo'yicha tarkiblanishi<sup>11</sup>**

<b>T</b>	<b>Aktiv tomon</b>	<b>T</b>	<b>Passiv tomon</b>
A1	Doimiy harakatdagi aktivlar	P1	To'lov muddati kelgan majburiyatlar
A2	Tez pulga aylanadigan aktivlar	P2	Qisqa muddatli to'lov majburiyatlari
A3	Sekin pulga aylanadigan aktivlar	P3	Uzoq muddatli to'lov majburiyatlari
A4	Qiyin pulga aylanadigan aktivlar	P4	Doimiy passivlar

4-jadvaldan ko'rish mumkinki, aktivlar 4 ta guruhga bo'lingan bo'lib, A1-doimiy harakatdagi aktivlar deya keltirilgan. Aktivlarning qolgan guruhlari pulga aylanish so'ziga bog'langan bo'lib, tez, sekin va qiyin pul aylanuvchi aktivlar sifatida keltirilgan.

Muallifning fikricha, pulga aylanishining tez va sekin deyilishi birmuncha munozarali, chunki tez pulga aylanuvchi aktivlarga mazkur mualliflar adabiyotida debitorlik qarzlari keltirilgan. Debitorlik qarzlari yoki tovar-moddiy zaxiralarning pulga aylanishi debitorlik qarzlarning muddati va tovar-moddiy zaxiralarning sotilish davriga bog'liq. Shu bilan birga pul mablag'lari va qisqa muddatli investitsiyalar doimiy harakatdagi aktivlar sifatida e'tirof etiladi. Bu yerda ham investitsiyalar 3, 6 oy yoki bir yillik qimmatli qog'ozlar yoki boshqa muddatga qo'yilgan bo'lishi mumkin. Ularning tez pulga aylanishi kafolatlanmagan. Hatto debitorlik qarzlardan ham qiyinroq va uzoqroq muddatga pulga aylanishi ham mumkin. Shu bois, mazkur holatda bu aktivlarning tarkibi va turlari hamda muddatlari bo'yicha o'rganish va xulosa qilish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot obyekti bo'lgan "O'zmaxsusmontajqurilish" AK bo'yicha olib borilgan tahlillar natijasida uning aktivlari, majburiyatlari va kapitalining to'lov qobiliyatiga ta'sirini ko'rib chiqish lozim (5-jadval).

5-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, bu korxonaning aktivlari summasi sezilarli darajada katta bo'lib, uning tarkibida yillar kesimida uzoq muddatli aktivlarning tarkibiy strukturasi o'zgarishsiz tendensiyaga ega. Jumladan, 2020 yilda uzoq muddatli aktivlarning jami aktivlardagi salmog'i 97,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 97,2 foizni tashkil etgan. 2022-yilda esa, yana avvalgi holatga qaytgandek, salkam 99.3 foizni tashkil etgan.

Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ko'rsatdiki, buxgalteriya balansi ma'lumotlari asosida korxonada joriy to'lovga qobiliyat darajasini aniqlash birmuncha murakkab. Buning sababi yuqorida qisman ta'kidlab o'tilganidek, tezda pulga aylanishi mumkin bo'lgan aktivlar yoki harakatdagi aktivlardan ham to'lov vositasi sifatida foydalanmaslik hisoblanadi.

Pul mablag'lariga kassadagi, bankdagi hisob-kitob schyotidagi, valyuta schyotidagi pul mablag'lari kiritiladi. Biroq pul mablag'lari tarkibidagi pul ekvivalentlari (markalar, pattalar va boshqa pul ekvivalentlarining nominal qiymati) korxonada uchun eng likvidli va eng tez to'lov vositasi bo'la olmaydi. Shu bilan birga qisqa muddatli investitsiyalarning tarkibi obyekt misolida ko'rib chiqilib, ularning ham pulga aylanishi, hatto debitorlik qarzidan ham uzoqroqni tashkil etishi ma'lum bo'ldi.

<sup>11</sup> Рахимов М.Ю., Каландарова Н.Н. Молиявий таҳлил. – Т.: Iqtisod-Moliya, 2019.



**5-jadval**

**“O‘zmaxsusmontajqurilish” AJning aktivlari tarkibi tahlili<sup>12</sup>**

**(mln. so‘mda)**

Ko‘rsatkichlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
Aktivlar jami (400)	60 781	60 872	60 865	61 137	60 018
Uzoq muddatli aktivlar (130)	60 487	60 693	59 301	59 447	59 581
<b>Uzoq muddatli aktivlarning jami aktivlardagi salmog‘i, %</b>	<b>99,5</b>	<b>99,7</b>	<b>97,4</b>	<b>97,2</b>	<b>99,3</b>
Joriy aktivlar, jami (390)	294	179	1564	1689	436
<b>Joriy aktivlarning jami aktivlardagi salmog‘i, %</b>	<b>0,5</b>	<b>0,3</b>	<b>2,6</b>	<b>2,8</b>	<b>0,7</b>
TMZ (140)	1	6	4	3	9
<b>TMZning joriy aktivlardagi salmog‘i, %</b>	<b>0,3</b>	<b>3,4</b>	<b>0,3</b>	<b>0,2</b>	<b>2,1</b>
Debitorlik majburiyatlari (210)	19	85	1 516	1 596	389
<b>Debitorlik majburiyatlarining joriy aktivlardagi salmog‘i, %</b>	<b>6,5</b>	<b>47,5</b>	<b>96,9</b>	<b>94,5</b>	<b>89,2</b>
Pul mablag‘lari (320)	253	87	41	88	36
<b>Pul mablag‘larining joriy aktivlardagi salmog‘i, %</b>	<b>86,1</b>	<b>48,6</b>	<b>2,6</b>	<b>5,2</b>	<b>8,3</b>
O‘z mablag‘lari manbalari (480)	60 586	60 647	60 752	60 939	59 908
Jami manbalar (780)	60 781	60 872	60 865	61 137	60 018
<b>O‘z mablag‘lari manbalarining jami manbalardagi salmog‘i, %</b>	<b>99,7</b>	<b>99,6</b>	<b>99,8</b>	<b>99,7</b>	<b>99,8</b>
Majburiyalar (770)	181	164	113	177	109
Uzoq muddatli majburiyatlar (490)	0	0	0	0	0
Joriy majburiyatlar (600)	181	164	113	177	109
<b>Uzoq muddatli majburiyatlarining jami majburiyalardagi salmog‘i, %</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>0</b>
<b>Joriy majburiyatlarining jami majburiyalardagi salmog‘i, %</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>

Chunki qisqa muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schyotlarda korxonaning boshqa korxonalar qimmatli qog‘ozlariga qilingan qisqa muddatli (bir yil muddatdan ko‘p bo‘lmagan) investitsiyalari (qo‘yilmalar) davlat qarzlarning foizli obligatsiyalari, boshqa korxonalariga berilgan qarzlarning naqdligi va harakati to‘g‘risidagi axborotlar keltiriladi<sup>13</sup>.

Investitsiyalar quyidagi tarkibiy qismdan iborat:

- qimmatli qog‘ozlar;
- berilgan qisqa muddatli qarzlari;
- boshqa joriy investitsiyalar.

Yuqoridagilardan ko‘rish mumkinki, bu moddada tayyor pullar haqida so‘z yuritilmagan. Ya‘ni qimmatli qog‘ozlar schyotida aksiyalar, davlat qarzlarning foizli obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlariga qo‘yilgan qisqa muddatli investitsiyalar mavjudligi va harakati hisobga olinadi. O‘z-o‘zidan bu qimmatli qog‘ozlarni berganda, pulini beradigan tashkilot yoki korxonalar mavjud emas. Yoki xuddi debitorlik qarzidek, ularning ham muddatini kutish kerak.

<sup>12</sup> Ho‘jalik yurituvchi subyektlar ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

<sup>13</sup> 21-сонли БХМС

Berilgan qisqa muddatli qarzlarning shartnomasiga ko'ra 6 yoki 10 oyga qarz berilgan bo'lsa, qanday qilib, u doimiy harakatdagi aktiv bo'lishi mumkin.

Boshqa joriy investitsiyalar shartnomasida korxonalarining bank va boshqa omonatlarga so'zdagi va xorijiy valyutadagi qo'yilmalarining harakati hisobga olinadi. Bu masala o'rganilsa, bevosita bankka qo'yilgan omonat bilan bog'liq. Agar omonat muddati kelgan bo'lsa, yaxshi, ammo, uni muddatidan oldin so'ndirish, ya'ni qaytarib olish o'zaro shartlarga ko'ra bir necha oy davomida olingan foizlarni qaytarib to'lashga olib kelishi mumkin. Bu esa, bu moddada mablag'ni doimiy harakatdagi aktiv sifatida baholash noto'g'ri ekanligini ko'rsatadi.

Muallifning fikricha, balans ma'lumotlari bo'yicha korxonalar to'lov qobiliyatiga baho berilganda pul mablag'lari tarkibidan aynan harakati doimiy bo'lmagan, joriy to'lov vositasi bo'la olmaydigan yuqoridagi mablag'larni chiqarish va ularni tegishli tartibda A2, ya'ni tez pulga aylanuvchi aktivlar tarkibiga qo'shish maqsadga muvofiq.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Xo'jalik yurituvchi subyektlarda to'lov qobiliyatini oshirish yo'llari**" deb nomlangan. Mazkur bobda xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatiga ta'sir etuvchi omillarning prognoz ko'rsatkichlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lovga layoqatliligining tijorat banklari faoliyatiga ta'siri hamda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish sharoitida moliyaviy holat tahlilini tashkil etish yo'llari ko'rib chiqilgan.

Bozor iqtisodiyotida xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatini oshirish muhim masalalardan biridir. Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatining yuqori bo'lishi, birinchidan, tijorat banklari oldidagi majburiyatlarni doimiy bajarishni anglatadi, ikkinchidan, iqtisodiyotda barqarorlikni ta'minlash va provardida aholi farovonligini ta'minlashga olib keladi. Chunki bozor iqtisodiyotida tovarlar ishlab chiqarish, ish bilan bandlikni ta'minlash va iqtisodiyotning rivojlanishi ko'p jihatdan xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatining yuqori darajada bo'lishiga bog'liq.


Augmented Dickey-Fuller Test modeli orqali ko'rsatkichlarni birlik ildizga tekshirish va bu ko'rsatkichlar statsionar yoki nostatsionar ekanligi yuzasidan xulosa qilish maqsadga muvofiq.

## 6-jadval

### Augmented Dickey-Fuller Test natijasi

№	Ko'rsatkichlar	t-Statistic	Probability	Xulosa
1.	<b>CPI</b>	-4.969427	0.0002	I(0)
2.	<b>LnM2</b>	-6.421675	0.0000	I(0)
3.	<b>RINR</b>	-4.968533	0.0002	I(0)
4.	<b>RMMR</b>	-4.949969	0.0002	I(0)
5.	<b>RLR</b>	-4.937572	0.0002	I(0)
6.	<b>SofE</b>	-1.082739	0.7146	I(1)

6-jadval ma'lumotlariga ko'ra, tanlangan ko'rsatkichlardan faqatgina xo'jalik yurituvchi subyektlarning to'lovga layoqatliligi nostatsionar holatda bo'ladi. Qolgan barcha tanlangan ko'rsatkichlar statsionar holatida. Buni 4-rasm ma'lumotlaridan ham ko'rish mumkin.



#### 4-rasm. Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lovga layoqatliligiga ta'sir etuvchi omillarning impuls reaksiyasi<sup>14</sup>

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning to'lovga layoqatliligiga tanlangan ko'rsatkichlarning ta'sirini o'rganish uchun 2020M03:2023M12 davr oralig'ida o'zaro bog'liqlikni ifodalovchi formuladan foydalanish mumkin:

$$\begin{aligned}
 SofE_t = & \alpha_1 + \sum_{i=1}^2 \beta_i SofE_{t-i} + \sum_{i=1}^2 \gamma_i CPI_{t-i} + \sum_{i=1}^2 \mu_i \Delta M2_{t-i} + \sum_{i=1}^2 \delta_i RINR_{t-i} \\
 & + \sum_{i=1}^2 \theta_i RMMR_{t-i} + \sum_{i=1}^2 \partial_i RLR_{t-i} + \varepsilon_t
 \end{aligned}$$
